



Tashkent State University of Economics

JOURNAL OF INTERNATIONAL FINANCE AND ACCOUNTING

ISSN
2181-1016



ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARI SANOATINING BARQARORLIGI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI

Nuritdinova Zarnigorxon Fazliddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

E-mail: zarizar6760@gmail.com

Orcid: 0009-0006-9300-6859

ANALYSIS OF THE STABILITY AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE ISLAMIC FINANCIAL SERVICES INDUSTRY

Nuritdinova Zarnigorkhon Fazliddin qizi

Tashkent State University of Economics, PhD student

E-mail: zarizar6760@gmail.com

Orcid: 0009-0006-9300-6859

Annotatsiya. Mazkur maqolada Islomiy Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (IFSB) tomonidan e'lon qilingan "Islomiy moliyaviy xizmatlar sanoati tahlili 2025" ma'lumotlari asosida global islomiy moliya sanoatining rivojlanish tendensiyalari va barqarorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida statistik tahlil, qiyosiy tahlil va dinamik qatorlar usullaridan foydalanilgan. Natijalar 2024-yilda global islomiy moliya aktivlari 3,88 trillion AQSh dollariga yetganligini va yillik 14,9 foiz o'sishni qayd etganligini ko'rsatadi. Islomiy banklar sektorining 71,6 foizini tashkil etayotgan bo'lsa-da, sukuk va takaful segmentlarida ham sezilarli o'sish kuzatilgan. Tadqiqot natijalari islomiy moliya tizimining barqarorligini oshirish uchun kapital bozorlarini rivojlantirish, sukuk bozorini chuqurlashtirish hamda murabaha asosidagi instrumentlarga qaramlikni kamaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: islomiy moliya, islomiy banklar, murabaha, suyuq, IFSB, moliyaviy barqarorlik, takafful.

Abstract. This article analyzes the development trends and stability of the global Islamic finance industry based on the Islamic Financial Services Industry Stability

Report 2025 published by the Islamic Financial Services Board (IFSB). The research used statistical analysis, comparative analysis, and dynamic series methods. The results show that global Islamic finance assets reached US\$3.88 trillion in 2024, recording an annual growth rate of 14.9 percent. Although Islamic banks account for 71.6 percent of the sector, significant growth was also observed in the sukuk and takaful segments. The results of the study indicate the need to develop capital markets, deepen the sukuk market, and reduce dependence on murabaha-based instruments to increase the stability of the Islamic financial system.

Keywords: Islamic finance, Islamic banks, murabaha, sukuk, IFSB, financial stability, takaful.

Kirish

So'nggi o'n yilliklarda islomiy moliya global moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismiga aylandi. XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan ushbu tizim bugungi kunga kelib Yaqin Sharq, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika va Markaziy Osiyoda faol rivojlanmoqda. Islomiy moliyaning asosiy maqsadi moliyaviy operatsiyalarni shariat tamoyillari asosida tashkil etish, foiz



(ribo), haddan tashqari noaniqlik (g'arar) va spekulativ operatsiyalarni cheklashdan iborat. 2008-yilgi global moliyaviy inqirozdan keyin islomiy moliyaning barqarorlikka asoslangan modeli xalqaro tadqiqotchilar e'tiborini tortdi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon banki, Islom Taraqqiyot Banki va IFSB¹ tomonidan olib borilgan tadqiqotlar islomiy moliya institutlarining ayrim hollarda an'anaviy moliyaviy institutlarga nisbatan yuqoriroq barqarorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Bugungi kunda islomiy moliya faqat musulmon mamlakatlari bilan cheklanib qolmay, balki Buyuk Britaniya, Lyuksemburg, Gonkong, Singapur kabi xalqaro moliya markazlarida ham faol rivojlanmoqda. Bu esa islomiy moliyaning diniy xususiyatdan tashqari, iqtisodiy samaradorlik va investitsion jozibadorlik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi.² Xalqaro moliya institutlari, jumladan, Islamic Financial Services Board (IFSB), Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI) va Islamic Development Bank tomonidan ishlab chiqilayotgan standartlar va tavsiyalar ushbu sohaning institutsional rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, moliyaviy texnologiyalar (fintech), sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining jadal rivojlanishi islomiy moliya sanoatida ham yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Biroq bu jarayon bilan bir qatorda shariatga muvofiqlik, operatsion risklar, kiberxavfsizlik va nazorat mexanizmlariga oid yangi muammolar ham paydo

bo'lmoqda.³ Shu sababli islomiy moliya tizimining nafaqat o'sish sur'atlari, balki uning moliyaviy barqarorligi va tizimli xavflarga bardoshlilikini baholash dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

O'zbekiston uchun ham islomiy moliyani rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatda islomiy moliya xizmatlarini joriy etish, tegishli huquqiy bazani shakllantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmogda. Bunday sharoitda xalqaro tajribani, ayniqsa IFSB tomonidan e'lon qilinadigan barqarorlik hisobotlari natijalarini chuqur tahlil qilish O'zbekistonda islomiy moliya bozorini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

2024-yilda global iqtisodiyot yuqori inflyatsiya, geosiyosiy xavflar, foiz stavkalaridagi o'zgarishlar va kapital oqimlaridagi beqarorlik sharoitida rivojlandi. Bunday vaziyatda islomiy moliya tizimining tashqi inqirozlarga chidamliligini baholash alohida ahamiyat kasb etadi.⁴ Shu nuqtai nazardan IMXK (IFSB) tomonidan chop etilgan "Islomiy moliyaviy xizmatlar sanoati tahlili 2025" global islomiy moliya sektorining joriy holatini baholovchi eng muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi "IFSB Stability Report 2025" ma'lumotlari asosida global islomiy moliya tizimining rivojlanish tendensiyalari, moliyaviy barqarorligi va mavjud strukturaviy muammolarini tahlil qilishdan iborat.

¹ IFSB (Islamic Financial Services Board)- Islomiy Moliyaviy Xizmatlar Kengashi keying o'rinlarda IMXK deb yuritiladi

² Umer Chapra .The Islamic Vision of Development in the Light of Maqasid al-Shariah, 2007

³ Abbas Mirakhor va Zamir Iqbal . An Introduction to Islamic Finance, 2007

⁴ Muhammad Taqi Usmani. An Introduction to Islamic Finance. 2002

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi.

Jumladan:

- statistik tahlil;
- qiyosiy tahlil;
- dinamik qatorlar tahlili;
- kontent tahlili;
- mintaqalararo taqqoslash usuli.

Asosiy ma'lumotlar bazasi sifatida "Islomiy moliyaviy xizmatlar sanoati tahlili 2025" hisobotidan foydalanildi. Hisobotda 2020–2024-yillar davomida islomiy banklar, sukuk bozori, takaful va investitsiya fondlari faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar keltirilgan. Tahlilda GCC, MENA, EAP, ECA, SA va SSA mintaqalari bo'yicha ko'rsatkichlar o'zaro taqqoslandi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda "IFSB Stability Report 2025" ma'lumotlari asosida global islomiy moliya sanoatining rivojlanish tendensiyalari, kapital barqarorligi, murabaha instrumentlarining tizimli risklari, sukuk bozorining holati hamda fintech rivojlanishining moliyaviy barqarorlikka ta'siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda islomiy moliya institutlarini rivojlantirish va ularning barqaror faoliyatini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin

Natijalar va muhokama

Islomiy moliya tizimining rivojlanishi nafaqat aktivlar hajmining o'sishi bilan, balki moliyaviy vositachilikning yangi shakllarini yaratishi bilan ham tavsiflanadi. Iqtisodchi olim fan doktori.M.U.Chapra va M.T.Usmoniy fikricha, islomiy moliyaning asosiy afzalligi real iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligida namoyon bo'ladi. An'anaviy bank tizimida moliyaviy aktivlar ko'pincha real aktivlardan ajralib qolsa, islomiy moliyada har bir moliyaviy operatsiya muayyan tovar,

xizmat yoki investitsiya loyihasi bilan ta'minlangan bo'lishi talab etiladi.


"Islomiy moliyaviy xizmatlar sanoati tahlili 2025" ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda global islomiy moliya aktivlari 3,88 trillion AQSh dollariga yetgan va yillik o'sish sur'ati 14,9 foizni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich islomiy moliya tizimining global iqtisodiyotdagi mavqei mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Biroq mazkur o'sishning asosiy qismi hanuzgacha bank sektori hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa tizimning diversifikatsiyalashuv darajasi yetarli emasligini ko'rsatadi.

Nazariy jihatdan moliyaviy tizimning barqarorligi uning turli segmentlari o'rtasidagi muvozanatga bog'liq. Levine (2005) moliyaviy rivojlanish nazariyasida banklar va kapital bozorlari bir-birini to'ldiruvchi institutlar ekanligini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, islomiy moliya tizimida bank sektorining 71,6 foizlik ulushi kapital bozorlari va takaful sektorining nisbatan sust rivojlanganligini ko'rsatadi⁵.

Global islomiy moliya sanoatining o'sish tendensiyalari. 2024-yilda global islomiy aktivlar 3,88 trillion AQSh dollariga yetib, 14,9 foizlik o'sishni qayd etdi. Bu natija so'nggi yillarning o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqori hisoblanadi.


⁵ Islamic Development Bank Group. Annual Report 2024.

<https://www.isdb.org>



3-rasm. Bosqariladigan islomiy aktivlar(AuM) ulushi hududlar kesimida (mlrd dollarda)⁶.

Aktivlarning hududlar bo'yicha taqsimoti tahlili shuni ko'rsatadiki, GCC mamlakatlari global aktivlarning 53,1 foiziga egalik qiladi. EAP mintaqasi 21,87 foiz, MENA mamlakatlari esa 16,96 foiz ulushga ega. Bu natijalar islomiy moliya tizimining hanuzgacha ma'lum hududlarda konsentratsiyalashganligini ko'rsatadi.



1-rasm. 2018-2024 yillarda global islomiy aktivlar ulushi(mlrd dollarda) Islomiy banklar faoliyati tahlili⁷

⁶ "Islomiy moliyaviy xizmatlar sanoati tahlili 2025" ma'lumotlari asosida mallif tomonidan tayyorlandi


⁷ "Islomiy moliyaviy xizmatlar sanoati tahlili 2025" ma'lumotlari asosida mallif tomonidan tayyorlandi

Islomiy banklar aktivlari 2024-yilda 17,05 foizga o'sdi. Moliyalashtirish operatsiyalari va depozitlar hajmining mutanosib ravishda oshishi sektorning sog'lom rivojlanayotganidan dalolat beradi. IFSB ma'lumotlariga ko'ra, 17 ta mamlakatda islomiy banklar milliy bank tizimida tizimli ahamiyatga ega hisoblanadi. Saudiya Arabistoni, Malayziya, Quvayt, Bahrayn va Qatar yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Ayni paytda Qirg'iziston, Nigeriya va Marokash kabi mamlakatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Bu esa islomiy moliyaning yangi bozorlarga kirib borayotganligini ko'rsatadi. Islom bankchiligi islom moliyasida eng ko'p qo'llaniladigan va eng katta kapital aylanmaga ega sektor hisoblanadi. Islom bankchiligining shariat qonun qoidalariga asoslangan bank faoliyat. Islom

bankchiligida foyda va zarar adolatli taqsimlanadi va foiz stavkasi bo'yicha kreditlar ajratmaydi va omonatga pul qabul qilmaydi. Aynan shular ananaviy banklardan asosiy farqlari hisoblanadi. Ananaviy bank tomonidan berilgan pul qaytarilinayotganida albatta ma'lum bir miqdorda foiz stavkasi bilan qaytarilinadi.

Dunyo bo'yicha umumiy kapital islom banchiligida 2,765 trillion dollarga teng bo'lib, islom moliyasining 70 foizni tashkil etadi va 566 ta islom moliya banklariga ega. Quyida 2.2.2-ramda 4 xil islom banklari ko'rsatilgan. Son jihatdan eng ko'p tijorat banki hisoblanib, 456 taga 2022-yil yetibdi. Islomiy investitsiya banki esa, 64 ta bo'lib, ulgurchi va ixtisoslashgan banklarning soni deyarlik bir xil 25 va 21 tadan to'g'ri kelayapti.



2-rasm. 2025 –yilda Islomiy aktivlarga ega top mamlakatlar nisbati (mlrd dollarda)⁸

⁸ "Islomiy moliyaviy xizmatlar sanoati tahlili 2025" ma'lumotlari asosida mallif tomonidan tayyorlandi

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rsak bo'ladiki, islom moliyasining deyarlik 4 dan 1 qism kapitali Eron davlatiga tegishli bo'lib, Saudiya Arabiston, Malayziya ikkinchi va uchunchi o'rinda (1316 va 761 milliard AQSh dollari).

Kapital yetarliligi va moliyaviy barqarorlik. IFSB hisobotida islomiy banklarning kapital yetarlilik ko'rsatkichlari xalqaro standartlardan yuqori ekanligi qayd etilgan. Tier-1 kapital va CAR ko'rsatkichlari banklarning makroiqtisodiy shoklarga chidamliligini ta'minlamoqda. Leverage darajasi o'rtacha 10,7 foizni tashkil qilgan bo'lib, Basel III standartlarida nazarda tutilgan 3 foizlik minimal talabdan sezilarli yuqoridir. Bu holat islomiy banklarning konservativ moliyalashtirish siyosatini aks ettiradi.

Murabaha instrumentlari va tizimli risklar. Hisobotning eng muhim jihatlaridan biri commodity murabaha⁹ operatsiyalariga bag'ishlangan. 2024-yilda commodity murabaha asosidagi depozitlar hajmi 512 mlrd AQSh dollariga yetgan. Moliyalashtirish operatsiyalarida esa ushbu instrumentlar hajmi 380 mlrd dollardan oshgan. Biroq IFSB ekspertlari ushbu instrumentlarning haddan tashqari keng qo'llanilishi risklarni taqsimlash tamoyillarining zaiflashishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Murabaha operatsiyalarining ustunligi va uning moliyaviy barqarorlikka ta'siri. Murabaha zamonaviy islomiy bank amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan moliyalashtirish shakllaridan biridir. AAOIFI standartlariga ko'ra, murabaha sotuvchi tomonidan tovarning tannarxi va foyda marjasi xaridorga oshkor qilinadigan savdo bitimi hisoblanadi. Nazariy jihatdan ushbu

instrument savdoga asoslangan bo'lib, foizli kreditning muqobili sifatida qaraladi.¹⁰

Biroq so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar murabahaning haddan tashqari keng qo'llanilishi islomiy moliyaning asl risk-sharing falsafasidan uzoqlashishiga olib kelayotganini qayd etmoqda. M.Kahf (2019), El-Gamal (2006) hamda M.Ahmed (2011)larning fikricha, murabaha operatsiyalarining ustunligi natijasida islomiy banklar amaliy jihatdan qarzga asoslangan moliyalashtirish modeliga yaqinlashib bormoqda.

IMXK hisobotida ham aynan shu muammoga e'tibor qaratilgan. Commodity murabaha (tovar murobaha) asosidagi depozitlar hajmi 512 mlrd AQSh dollariga, moliyalashtirish operatsiyalari esa 380 mlrd AQSh dollariga yetgani qayd etilgan. Hisobot mualliflari ushbu holat leverej risklarining ortishi, moliyaviy institutlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi va tizimli xavflarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Mazkur holat O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki mamlakatda islomiy moliyalashtirishning ilk bosqichida aynan murabaha operatsiyalarining keng joriy qilinishi kutilmoqda. Shu sababli murabaha bilan bir qatorda musharaka, mudaraba va salam kabi risklarni taqsimlashga asoslangan instrumentlarni ham rivojlantirish zarur.

Sukuk bozorining rivojlanishi. 2024-yilda global sukuk emissiyasi 230,4 mlrd AQSh dollariga yetib, 25,6 foiz o'sdi.

Shunga qaramay, sukuk bozori quyidagi muammolarga duch kelmoqda:

- ikkilamchi bozorning sustligi;
- likvidlikning yetarli emasligi;
- standartlashtirish muammolari;
- investorlar bazasining torligi;

⁹ CM (commodity murobaha yoki trade murobaha) ya'ni tovar murobaha

¹⁰ AAOIFI. Shari'ah Standard No. 8: Murabaha to the Purchase Orderer. <https://aaoifi.com/shariaa-standards/>

- mahalliy valyutadagi benchmark sukuklarning kamligi.

IFSB ushbu muammolarni bartaraf etish uchun muntazam davlat sukuklari emissiyasini tashkil etish va standartlashtirish jarayonlarini jadallashtirishni tavsiya qiladi.

O'zbekiston uchun ahamiyati.

O'zbekistonda islomiy moliya bozori shakllanish bosqichida bo'lib, IFSB hisobotidagi xulosalar amaliy ahamiyatga ega.

Birinchidan, murabaha operatsiyalarini joriy etishda risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish zarur.

Ikkinchidan, sukuk bozorini rivojlantirish orqali banklar uchun likvidlikni boshqarish instrumentlari yaratilishi mumkin.

Uchinchidan, AAOIFI va IFSB standartlarini joriy etish investorlarga bo'lgan ishonchni oshiradi.

To'rtinchidan, Markaziy Osiyo davlatlaridagi yuqori o'sish sur'atlari O'zbekiston uchun ham katta salohiyat mavjudligini ko'rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari global islomiy moliya sanoati 2024-yilda yuqori o'sish sur'atlarini namoyish etganligini ko'rsatdi. Aktivlar hajmining 3,88 trillion AQSh dollariga yetishi va 14,9 foizlik o'sish islomiy moliya tizimining xalqaro moliya bozoridagi ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Islomiy banklar sektorining asosiy qismini tashkil etsada, sukuk va takaful segmentlarining tez rivojlanishi tizimning diversifikatsiyalanayotganligini ko'rsatadi¹¹. Biroq commodity murabaha operatsiyalarining ustunligi, sukuk bozoridagi likvidlik muammolari va kapital bozorlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi tizimning asosiy strukturaviy zaifliklari bo'lib qolmoqda. Shu sababli IFSB tomonidan tavsiya etilgan kapital bozorlarini chuqurlashtirish, sukuklarni standartlashtirish va risklarni taqsimlashga asoslangan instrumentlarni rivojlantirish choralari dolzarb ahamiyatga ega.

¹¹ Islamic Development Bank Group. Annual Report 2024. <https://www.isdb.org>



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. AAOIFI. Shari'ah Standard No. 8: Murabaha to the Purchase Orderer. <https://aaoifi.com/shariaa-standards/>
2. Muhammad Taqi Usmani. An Introduction to Islamic Finance. Karachi: Maktaba Ma'ariful Qur'an, 2002.
3. Islamic Financial Services Board (IFSB). Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025. <https://www.ifsb.org>
4. Islamic Development Bank Group. Annual Report 2024. <https://www.isdb.org>
5. International Islamic Trade Finance Corporation (ITFC). Annual Reports. <https://www.itfc-idb.org>
6. Umer Chapra .The Islamic Vision of Development in the Light of Maqasid al-Shariah, 2008
7. Abbas Mirakhor va Zamir Iqbal . *An Introduction to Islamic Finance*, 2007